



TASDIQLAYMAN
Samarcand davlat arxitektura-qurilish
instituti rektori
Ch.Dj.Turkyilmaz
2022 yil

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI

60210400 - "Dizayn (turlari bo'yicha)

**"Rangtasvir" va "Chizmachilik"
fanlaridan**

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR
DASTURI, BAHOLASH MEZONI VA FAN MAJMUALARI**

Kiritdi:

Samarqand davlat arxitektura-qurilish
instituti prorekтори

X.T.Buriyev
"27" uioh 2022-yil

Samarqand – 2022

Dastur Mirzo Ulug’bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2022 yil “27” iyun № 11-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

- Sh.Uzoqov** - Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti, “Muhandislik grafikasi va kompyuterda loyihalash” kafedrasi dotsenti;
- Sh. O’rinboyev** - Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti, “Tasviriy san’at” kafedrasi mudiri;
- H. Jo’rayev** - Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti, “Tasviriy san’at” kafedrasi dotsenti

Taqrizchilar:

- D. Omonov** - Samarqand davlat universiteti, O’zbekiston –Finlandiya pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasi mudiri, dotsent
- S.S.Saydaliev** TAQI, “Chizma geometriya va kompyuterda loyihalash” kafedrasi mudiri, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

1. Kirish

Alohida iqtidor talab etiladigan 60210400 - “Dizayn (turlari bo‘yicha) bakalavr ta‘lim yo‘nalishi uchun imtihon dasturi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida iqtidor talab etiladigan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga kasbiy (ijodiy) imtihonlar orqali qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2018-yil 27-iyuldaggi 588-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruvi mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasining 2022-yil 22-apreldagi 13-son bayoniga 1-ilova “Respublika oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga mos test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, test topshiriqlari soni hamda baholash mezonlari” asosida tayyorlangan. Imtihon dasturi o‘rta maxsus va kasb-hunar kollejlaridagi tasviriy san‘at va chizmachilik fanlari asosida tuzilgan bo‘lib, abiturientlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Rangtasvirning grafik usullari asosida abiturientlarning ijodiy qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazish va qo‘yilma (natura)ni chizishga oid kompetensiyalarini baholash ularning rang sezish, ranglar yug‘unligida tasvirni ifodalay olishini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

60210400 – “Dizayn (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishi bo‘yicha tanlovda qatnashuvchi abiturientlar “Rangtasvir” va “Chizmachilik” fanlaridan kasbiy (ijodiy) imtihon topshiradilar.

“Rangtasvir” 60210400 – “Dizayn (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv jarayoni davomida alohida ahamiyatga ega bo‘lganligi va “Chizmachilik” esa talabalar tomonidan keyinchalik ham mustaqil ravishda o’zlashtirilishi mumkinligini inobatga olgan holda kasbiy (ijodiy) imtihon ballarini quyidagicha taqsimlash maqsadga muvofiq:

Birinchi kasbiy (ijodiy) imtihon “Rangtasvir” – maksimal - **112,0** ball;
Ikkinci kasbiy (ijodiy) imtihon “Chizmachilik” – maksimal - **44,0** ball;
Jami maksimal ball - **156,0** ball.

2. Kasbiy (ijodiy) imtihonning maqsad va vazifalari

Kasbiy (ijodiy) imtihonning maqsadi abiturientlarning rang sezish, ranglar yug‘unligida tasvirni ifodalay olish va detallarni tushuna bilish hamda fazoviy tasavvurini qollay olish qibiliyatlarini aniqlash.

Yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi:

- natyurmortning qog‘oz formatiga nisbatan to‘g‘ri joylashtirish;
- ufq chizig‘ini to‘g‘ri topish;

- narsa va buyumlarning o‘zaro nisbatlari to‘g‘ri topish;
- rang bilan ishslashda nur va soya qonuniyatlariga amal qilish;
- naturani ishslashda rang munosabatlari to‘g‘ri topish;
- perspektiva (chiziqli va havo perspektivasi) qoidalariga amal qilish;
- narsa va buyumlar fakturasi to‘g‘ri ifodalash;
- chizma chizish qoidalar binoan yetishmagan proyeksiyalarini topa olishi va standartlar asosida o‘lchamlar qo‘yishi;
- fazoviy tasovvurlarga tayangan holda detallarning yaqqol tasvirini qurish va qirqimini bajarish.

3. Abiturient bilimiga qo‘yiladigan talablar

“Rangtasvir” fani bo‘yicha:

- abiturient natura (natyurmort) ga e’tibor bergan holda rangtasvir faniga oid shakl va ranglarini to‘liq ko‘rsatib berishi;
- ranglar doirasi, ranglar qonuni to‘g‘risidagi tushunchalarga amal qilgan holda qo‘yilgan natyurmortni rangda ishslash;
- ranglar oraliq‘idagi qarama - qarshilik, sovuq - issiq ranglar to‘g‘risidagi tasavvurni amalda qo‘llay bilish;
- shaxsning individual, yetuklik davrida abiturient rangtasvir qonuniyatlari orqali o‘zining bilimini, sog‘lom dunyoqarashini, badiiy san’atga bo‘lgan qiziqishini, rangli bo‘yoqlar, oddiy qalamlar va mo‘yqalamlar kabi ifoda vositalaridan foydalana bilishi;
- fanning mazmunidan kelib chiqqan holda berilgan naturaga tegishli bo‘lgan anjomlarni badiiy tasvirlash;
- ranglar texnologiyasini o‘zlashtirish va bajarilayotgan vazifada namoish etish kabi talablarni bajarishi lozim.

“Chizmachilik” fani bo‘yicha:

- turli grafik texnika sohasidagi ishlar vositalari: grafik qalam, burchakli, gradusli, yoysimon chizg‘ichlar, sirkul va boshqalar;
- geometrik shakllarning proyeksiylash qonunlari, oldidan va ustidan ko‘rinishlar asosida detalning uchinchi ko‘rinishini yaratish, aksometrik proeksiyalar, chizmani joylashtirish haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- amaliyotda egallangan bilimlari asosda chizmachilik anjomlarni qo‘llashni;
- o‘lchamlarni qo‘yish qoidalari;
- masshtablar, chiziqlar;
- detallar tasvirining geometrik asoslari, ko‘rinishlar, qirqimlar va kesimlar, chizmalarda yozuvlar va belgilashlarni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- fazoviy hajmni qog‘oz tekisligida grafik texnikasida tasvirlash;
- nafaqat ko‘rinadigan, balki detallarning ko‘rinmas qismini tasvirlash;
- ijodiy fikrlab va ko‘rish qobiliyati orqali chizishni rivojlantirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

4. “Rangtasvir” fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonning baholash mezonlari

Vazifa: Maishiy buyumlaridan tashkil topgan natyurmort yoki turli ranglarga ega oddiy buyumlar, gipsli rozetka, sopol va mis ko’zalar hamda sabzavotlardan tuzilgan natyurmort qo'yiladi.

Rangtasvir A3 formatdagi qog’ozda qalam va akvarel bo’yoqlaridan foydalangan holda bajariladi.

Vazifa: 4 (to‘rt) akademik soat (180 minut) davomida bajariladi.

№	Baholash tartibi	Mezonlar asosida belgilangan ballar
1.	Natyurmortning qog’oz formatiga nisbatan to‘g‘ri joylashtirilganligi quyidagi mezonlardan biri bilan baholanadi:	0-14,0
1.1	<i>Natyurmortni qog’oz formatiga nisbatan joylashtirishda qo’pol xatoliklarga yo’l qo’yilgan, qoidalarga umuman amal qilinmagan bo’lsa.</i>	<i>0-5,0</i>
1.2	<i>Natyurmort qog’oz formatiga nisbatan noto‘g‘ri joylashtirilgan (qog’oz formatidan chiqib ketgan, markazdan joylashtirilmagan, burchagiga tushib qolgan) bo’lsa.</i>	<i>6,0-8,0</i>
1.3	<i>Natyurmort qog’oz formatiga joylashtirilgan, ammo kamchilliklar bor (qog’oz formatiga nisbatan bir oz kichik yoki bir oz katta) bo’lsa</i>	<i>9,0-11,0</i>
1.4	<i>Natyurmortning qog’oz formatiga nisbatan to‘g‘ri joylashtirilgan bo’lsa</i>	<i>12,0-14,0</i>
2.	Ufq chizig‘i to‘g‘ri topilganligi quyidagi mezonlardan biri bilan baholanadi:	0-16,0
2.1	<i>Buyum va yuzalarda tasvirlanishida ufq chizig‘iga umuman amal qilinmagan bo’lsa.</i>	<i>0-4,0</i>
2.2	<i>Ufq chizig‘i barcha buyum va yuzalarda noto‘g‘ri topilgan bo’lsa.</i>	<i>5,0-7,0</i>
2.3	<i>Ufq chizig‘ini aniqlashda noaniqliklar bor (Ayrim narsa va buyumlar tasvirida nomutanosibliklar mavjud) bo’lsa.</i>	<i>8,0-10,0</i>
2.4	<i>Ufq chizig‘i ba’zi buyumlarda to‘g‘ri topilgan bo’lsa</i>	<i>11,0-13,0</i>
2.5	<i>Ufq chizig‘i barcha buyum va yuzalarda to‘g‘ri topilgan bo’lsa</i>	<i>14,0-16,0</i>

3.	Narsa va buyumlarning o‘zaro nisbatlari to‘g‘ri topilganligi quyidagi mezonlardan biri bilan baholanadi:	0-16,0
3.1	<i>Natura nisbatlarini topishga umuman harakat qilinmagan, juda qo‘pol xatoliklar mavjud bo‘lsa.</i>	0-4,0
3.2	<i>Naturaga qo‘yilgan narsa va buyumlar nisbatlarining topilishida qo‘pol xatoliklar mavjud bo‘lsa.</i>	5,0-8,0
3.3	<i>Naturaga qo‘yilgan narsa va buyumlar nisbatlari topilgan, ammo kamchiliklar mavjud bo‘lsa.</i>	9,0-12,0
3.4	<i>Narsa va buyumlarning o‘zaro nisbatlari to‘g‘ri topilgan bo‘lsa.</i>	13,0-16,0
4.	Rang bilan ishslashda nur va soya qonuniyatlariga amal qilinganligi quyidagi mezonlardan biri bilan baholanadi:	0-14,0
4.1	<i>Nur va soya qonuniyatlariga umuman amal qilinmagan yoki ular noto‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lsa.</i>	0-5,0
4.2	<i>Natura sirti, uning atrofidagi nur va soyalarini ko‘rsatishda qo‘pol xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa.</i>	6,0-8,0
4.3	<i>Natura sirti, uning atrofidagi nur va soyalarini ko‘rsatishga harakat qilingan, ammo ular rangtasvirida kamchiliklar mavjud (blik, yorug‘, yarim soya, soya va refleks tasviridagi izchillik buzilgan) bo‘lsa.</i>	9,0-11,0
4.4	<i>Natura sirti hamda uning atrofidagi nur va soyalar to‘g‘ri ko‘rsatilgan (blik, yorug‘lik, yarim soya, soya va refleks tasviridagi izchillik kabilari o‘z o‘rnida) bo‘lsa.</i>	12,0-14,0
5.	Naturani ishslashda rang munosabatlari to‘g‘ri topilganligi quyidagi mezonlardan biri bilan baholanadi:	0-12,0
5.1	<i>Naturani ishslashda rang munosabatlari topilmagan bo‘lsa (natyurmort ranglarida narsa va buyumlarning uzaro rang munosabatlari o‘rtasida umuman bo‘gliqlik yo‘q).</i>	0-4,0
5.2	<i>Natyurmortni ishslashda rang munosabatlarini to‘g‘ri ko‘rsatishga harakat qilingan, ammo ular talab darajasida bo‘maganda (natyurmort ranglarida narsa</i>	5,0-8,0

	<i>va buyumlarning o‘zaro rang munosabatlari o‘rtasida bog‘liqlik kamroq).</i>	
5.3	<i>Naturani ishlashda rang munosabatlari to‘g‘ri topilgan (natyurmort ranglarida narsa va buyumlarning o‘zaro rang munosabatlari o‘rtasida bog‘liqlik mavjud) bo‘lsa.</i>	9,0-12,0
6.	Perspektiva (chiziqli va havo perspektivasi) qoidalariga amal qilinganligi quyidagi mezonlardan biri bilan baholanadi:	0-12,0
6.1	<i>Perspektiva qoidalariga (chiziqli-rangli va havo perspektivasi) umuman amal qilinmagan, juda qo‘pol xatoliklar mavjud bo‘lsa.</i>	0-4,0
6.2	<i>Chiziqli perspektiva qoidalari bajarilgan, ammo rang va havo perspektivasiga amal qilinmagan (birinchi va orqa planlar o‘rtasidagi farqlar ko‘rsatilmagan) bo‘lsa.</i>	5,0-8,0
6.3	<i>Perspektiva (chiziqli va havo perspektivasi) qoidalariga amal qilingan bo‘lsa.</i>	9,0-12,0
7.	Akvarel bo‘yog‘i texnikasidan to‘g‘ri foydalanilganligi quyidagi mezonlardan biri bilan baholanadi:	0-12,0
7.1	<i>Akvarel bo‘yog‘i texnikasidan noto‘g‘ri foydalanilgan bo‘lsa.</i>	0-4,0
7.2	<i>Akvarel bo‘yog‘i texnikasidan to‘g‘ri foydalanishga harakat qilingan, ammo buzilishlar mavjud (ba’zi hollarda ranglar qo‘yilishi o‘ta quruq va qalin, guash texnikasi bilan aralashib ketgan) bo‘lsa.</i>	5,0-8,0
7.3	<i>Akvarel bo‘yog‘i texnikasidan to‘g‘ri foydalanilgan bo‘lsa.</i>	9,0-12,0
8.	Narsa va buyumlar fakturasi (mato, sopol, chinni, metal va boshqalar) to‘g‘ri ifoda etilganligi quyidagi mezonlardan biri bilan baholanadi:	0-16,0
8.1	<i>Tasvirda narsa va buyumlar fakturasi (materiallik) umuman ko‘rsatilmagan.</i>	0-4,0
8.2	<i>Tasvirda narsa va buyumlar fakturasini (materiallik) ko‘rsata olmagan, bajarilgan ishda ularning fakturasini aniqlab bo‘lmaydi.</i>	5,0-7,0
8.3	<i>Natyurmortdagи narsa va buyumlar fakturasi (materiallik)ni ko‘rsatishda kamchilliklar bor (gips buyum ko‘rinishi oq chinniga o‘xshab qolgan va hakazo).</i>	8,0-10,0

8.4	<i>Natyurmortdagি narsa va buyumlar fakturasi (materiallik)ni qisman ko'rsatilgan</i>	11,0-13,0
8.5	<i>Tasvirda narsa va buyumlar fakturasi (materiallik) to 'g'ri ifoda etilgan.</i>	14,0-16,0
	Jami maksimal ball:	112.0

Izoh. Baholash mezonining kichik bandlarida berilgan raqamlar shu band bo'yicha berilishi mumkin bo'lgan ballni belgilaydi. **Masalan**, 3-bo'limning **3.2** bandidagi "**5,0-8,0**" raqami shu ko'rsatkich bo'yicha 5,0 dan - 8,0 gacha bo'lgan oraliqda baholanishi mumkinligini anglatadi.

5. "Chizmachilik" fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonning baholash mezonlari

Chizmachilik fanidan ijodiy imtixon 44,0 ball bilan baholanadi va u ikki vazifadan iborat bo'ladi.

Chizmachilik fanidan A-3 format o'lchamdagи vatman qog'ozda qalamda bajariladi.

Imtihon vaqt 2 (Ikki) akademik soat (90 minut).

Birinchi vazifa: ikki ko'rinishi bo'yicha berilgan detalning uchinchi ko'rinishini topish va zarur qirqimlar bajarish. Detalning aksonometrik (to'g'ri burchakli izometrik yoki to'g'ri burchakli dimetrik) proyeksiyasini yasash va zarur qirqim berish.

Ikkinchi vazifa: Komissiya a'zosi ko'rsatgan so'zni 10-chi "B" turidagi qiya standart chizma shrifti bilan yozish.

№	Baholash tartibi	Mezonlar asosida belgilangan ballar
1.	Ikki ko'rinishi bo'yicha berilgan detalning yetishmovchi ko'rinishini topish va zarur qirqimlar bajarish hamda ortogonal ko'rinishlarga o'lchamlarni standart asosida taqsimlab qo'yish quyidagi bandlar yig'indisi ko'rinishida baholanadi:	0,0-18,0
1.1	<i>Shartini to 'g'ri anglab, berilgan ko'rinishlarni standart asosida ko'chirganligi uchun;</i>	0,0-2,0
1.2	<i>Masshtab to 'g'ri tanlanganligi uchun;</i>	0,0-1,0
1.3	<i>Detalning yetishmovchi ko'rinishini to 'g'ri bajarilganligi uchun;</i>	0,0-4,0
1.4	<i>Chizilgan uch ko'rinishga kerakli qirqim turidan to 'g'ri foydalanganligi uchun;</i>	0,0-3,0
1.5	<i>Ko'rinishlarda o'lchamlarni to 'g'ri taqsimlanganligi uchun;</i>	0,0-2,0

1.6	<i>Standart asosida o'lchamlarni yozilganligi uchun;</i>	0,0-2,0
1.7	<i>Ko'inishda va o'lchamlarni qo'yishda chiziq turlariga rioya qilinganligi uchun;</i>	0,0-3,0
1.8	<i>Shartni bajarishda standart qo'pol xatolikka yo'l qo'yilmagan.</i>	0,0-1,0
2.	Detalning aksonometrik (to'g'ri burchakli izometrik yoki to'g'ri burchakli dimetrik) proyeksiyasini yasash va zarur qirqim berish uchun quyidagi bandlar yig'indisi ko'inishida baholanadi:	0,0-23,0
2.1	<i>Aksonometrik proeksiya to'g'ri boshlangan;</i>	0,0-3,0
2.2	<i>Aksonometrik proeksiya tugallangan;</i>	0,0-4,0
2.3	<i>Aksonometriyada qirqim to'g'ri bajarilgan;</i>	0,0-7,0
2.4	<i>Aksonometriyada chiziq turlariga rioya qilinganligi uchun;</i>	0,0-3,0
2.5	<i>Chizmani chizmada qog'oziga to'g'ri joylashtirilganligi uchun;</i>	0,0-3,0
2.6	<i>Chizmani formatda sifatli bajarilganligi uchun;</i>	0,0-2,0
2.7	<i>Shartni bajarishda standart qo'pol xatolikka yo'l qo'yilmagan.</i>	0,0-1,0
3.	Komissiya a'zosi ko'rsatgan so'zni 10-chi "B" turidagi qiya standart chizma shrifti bilan yozish.	0,0-3,0
3.1	<i>Standart chizma shriftiga yordamchi to'r chiziganli uchun.</i>	0,0-1,0
3.2	<i>Chizma shriftini standart qalinligida yozganligi uchun.</i>	2,0-3,0
	Jami maksimal ball:	44,0

Izoh: baholash mezonining kichik bandlarida berilgan raqamlar shu band bo'yicha maksimsi balni belgilaydi. Masalan, 1-bandning 1.4 kichik bandidagi "**0,0-8,0**" raqami shu ko'rsatkich bo'yicha **0** dan-**8** gacha oraliqda baholanishini anglatadi.

Eslatma. Ijodiy imtihonga qatnashmagan abiturientga qayta topshirishga imkoniyat berilmaydi va "0" ball bilan baholanadi.

Imtihon natijalari imtihon o'tkazilgan kunning ertasiga e'lon qilinadi.

6. Kasbiy (ijodiy) imtihon topshiriladigan fanlar majmuasi

T/r	Ta'lim yo'nalishi kodi	Bakalavriat ta'lim yo'nalishi nomi	1-fan	2-fan
1.	60210400	Dizayn (turlari bo'yicha)	Rangtasvir	Chizmachilik

7. Apellyatsiya tartibi

To'plagan balidan norozi abiturient kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari e'lon qilingandan so'ng 24 soat ichida apellyastiya komissiyasiga murojaat etish huquqiga ega. Appelyatsiya faqat abiturientning o'z ishi natijalari bo'yicha ko'rib chiqiladi.

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.Boymetov, "Qalamtasvir", "Ilm-ziyo" – 2007 y.
2. Sh. Qobilov, "Tasviri san'at o'qitish metodikasi", "Fan va texnologiya", - 2014 y.
3. X. E. Egamov, "Rang tasvir", Toshkent – 2020 y.
4. U. Sh. Ismatov, "Rang tasvir", Chirchiq – 2020 y.
5. I. Rahmonov va boshqalar, "Chizmachilik (9 –sinf o'quvchilari uchun)", Toshkent, "O'zbekiston" – 2019 y.